

USMON NOSIR ADABIYOTSHUNOSLAR NIGOHIDA

GULCHIROY TURDALIYEVA ANVARJON QIZI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI MAGISTRANTI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijodkorning asarlari tahlilga olingan. Adabiyotshunoslar U.Nosir haqida yozgan kitoblari xususida fikrlar keltirilgan. Ilmiy ma'lumotlardan to'laqonli foydalanilgan.

Kalit so'zlar: She'riyat, tabiat, inson, yurak, yo'l, diydor, saqn'atkorlik, joziba, ohang garmoniyasi

Adabiyot olamiga kirgan har qanday shaxs Usmon Nosirni o'rgangisi, unga atab qatralar bitgisi keladi. Chunki har bir misrasi yurak qoni qo'shilib bitilgan.

O'zbek she'riyatining yorqin yulduzi, erk kuychisi nomini olgan mashhur shoir Usmon Nosir serma'no maftunkor she'rlari bilan xalqning hurmatiga sazovor bo'lgan ijodkordir. U 1912-yil 13-noyabrda Namangan shahrida dunyoga keldi. Uning she'riyati XX asr o'zbek poeziyasining ko'plar yetolmagan cho'qqilarini zabit etdi. Bo'lajak shoir to'rt yoshida otasidan ayrildi. Avval tog'asi qo'lida, 9 yoshidan esa o'gay ota qo'lida tarbiyalandi. Shoирning hayot yo'lini kuzatar ekansiz, u hech bir joyda muqim yashamaganini, hattoki oliy ma'lumotni ham tugata ololmaganini ko'ramiz. Qo'qon shahridagi o'rta maktabda sakkiz yillik ta'limdan so'ng Moskvadagi Kinemotografiya institutida bir yil, Samarqanddagi Pedagogika akademiyasi (hozirgi SamDU)da bir yil tahsil oldi. "Yosh leninchi" gazetasida boshlangan mehnat faoliyati esa 1933-yildan 1934-yilgacha cho'zildi. "Hayotga, she'riyatga bo'lgan beqiyos muhabbat uning qo'llariga qalam tutdi, qalbini hayajon va shodlikka to'ldirdi. Yuragiga buyuk bir otash soldi! Go'zallikka tashna bo'lgan o'tli ko'zlariga butun olam, tabiat she'riyat bo'lib ko'rindi" - ushbu jumlalar "Diydor" gazetasining 2002-yil 16-noyabr sonida chop ettirgan muallif Moxira Ibrohim qizining "Shoir boqiy yashaydi" degan maqolasida aks etgan. Uning ilk she'ri 15 yoshida, ilk dostoni 19 yoshida, dastlabki she'riy to'plami esa 20 yoshida nashr qilindi. Yigirma to'rt yoshigacha Usmon Nosir "Naxshon", "Traktrobod", "Yurak", "Mehrim" kabi she'riy to'plamlarini chiqarib ulgurgandi. Bu to'plamlarda inson ruhining ozod parvozi, tabiat va muhabbatdan to'lqinlangan qalbning otashin sadosi ko'rinish turardi. Shoir she'riyati chaqmoqdek keskir, olovdek yorqin, buloq suvidek tiniqdir. Bu tiniqlik uning yuragini, qalbining odam va olam haqidagi tasavvurlarining tiniqligidan darak beradi. Uning tuyg'ulari ham pokiza edi. Shoir o'z qalbiga sira hiyonat qilmadi. Usmon Nosir butun hayoti davomida tanlagan yo'lidan ketdi. Butun umr yurakni, shoir yuragini kuylab o'tdi. Mana, oradan 110 yil o'tibdiki, bu yurakdan chiqqan sohir, muncli, gohida esa

hayotbaxsh, goh achchiq satrlar vaqt va sarhad chegaralarini yorib, hozirgacha she’riyat shaydolarining ma’naviy kamoloti yo‘lida xizmat qilmoqda. Shoир asarlarining yutug‘ini ta’milagan omillardan biri xudo bergen iste’dodi bo‘lsa, ikkinchisi Sharq va G‘arb adabiyoti tajribalarini ijodiy o‘zlashtira borganidir. “Usmon she’riyatimizga shamolday kirib keldi. Balki bo‘ronday! U shunday to‘polon va to‘lqin bilan keldiki, uncha-muncha she’riy uslub va ijodni to‘s-to‘s qilib yubordi. Uni o‘zimizda “O‘zbekning Lermontovi”, Moskva gazetalarida “Sharqda Pushkin paydo bo‘ldi”- deb yozishdi, degandi unga zamondosh shoир Turob To‘la. Ushbu so‘zlar “Jahon adabiyoti” jurnalining 2012-yilning 11-sonida aks etgan.[1.B57]

Taniqli adabiyotsunos olim Ibrohim Gofurovning “Qismatning ovozi”, “Unutmas meni bog‘im” (Xurshid Davron sayti), Akademik Naim Karimov “Usmon Nosirning so‘nggi kuni”, O‘zbekiston Qahramoni A. Oripov “Usmon Nosir haqida so‘z” - O‘zbekiston adabiyoti va san’ati gazetasi, Sobir Mirvaliyev, R. Shokirovaning “O‘zbek adiblari”, shuningdek, shoир To‘ra Mirzoning “Usmon Nosir” nomli badiasi, “Usmon shoир – osmon shoир”, Iqbol Mirzoning “Usmon Nosir” dramasi, “Usmon Nosir” she’ri, Nodira Rashidova “Usmon Nosir haqida”, Mirpo‘lat Mirzo “Armon” nomli essesi, yosh va qalami o‘tkir yozuvchi Jovlon Jovliyevning “Usmon Nosir” kitobida ham aynan shoир ijodi tadqiq etilgan. U haqida ko‘plab maqolalar, badiiy lavhalar, sahna asarlari yaratilib kelinmoqda. Xotirasi manguga muxrlanishi uchun sa’y-harakatlar olib borilmoqda.

Ibrohim G‘ofurov “Qismatning ovozi” maqolasida shunday yoritadi:

Usmon Nosiriy oldida bizning hech uzib bo‘lmaydigan so‘ngsiz qarzimiz bor. Har safar Usmon Nosirni xotirlaganda, har safar uning so‘zidan — she’rlari va dostonlaridan bahrador bo‘lganda, doim shu qarz moziydan uzatilgan bir qo‘l kabi odamning yelkasidan tutadi. Olamni she’r suronlari bilan to‘ldirishga qodir bo‘lgan yigit o‘z vatanini har narsadan ortiqroq sevib, shu sevgisini kuylagani uchun zo‘ravon saltanat tomonidan mahv etildi. Shu hayot zavqlariga to‘lib toshgan yigitning axir nima gunohi bor edi. Haqiqiy shoirlar har qachon o‘z yurtlarining timsoli bo‘ladilar. Ular o‘z yurtlarining daryolariga, o‘z osmonlarining bulutlariga, o‘z tog‘larining mingashma cho‘qqilariga, o‘z yo‘llarining karvonlariga va o‘z onalarining chaqaloqlariga o‘xshaydilar. Shular bilan birga haqiqiy shoirlar o‘z millatining qalbiga o‘xshaydilar.

Geyne o‘z xalqining qalbi edi. Pushkin o‘z xalqining qalbi. Bayron — o‘z xalqining qalbi. Bu qalblarni toptamoq shu xalqlarning hayot asoslarini toptash bilan barobardir. Usmon Nosiriyni so‘zlarining miqyosi, kechinmalarining miqyoslariga ko‘ra o‘z xalqining qalbi deb aytsak, bunda mubolag‘a yo‘q. U tom ma’noda xalq timsoliga aylanish yo‘liga kirgan edi. Usmon Nosir vatanni hech ikkilansdan sevadi. Vatan deb, xalq deb, o‘zini har qanday sinovlarga hozirlagan. Vatan hisobidan hech

qanday murosaga bormaydi. Xalq hisobidan, xalq ustidan boshqalar bilan shu yurt, shu xalq uchun zararli murosalar tuzmaydi.

Uning sevgisi butun va bo‘linmas.

Usmon Nosirning she’rlari nurdan to‘qilgan.

Ular ichdan nurlanib turadilar.

Ichdan nurlanish juda noyob xodisa.

Insoniyatning kamdan-kam farzandlariga nasib bo‘ladi. So‘zning ichdan mo‘jiza kasb etib nurlanishini men Boboraqim Mashrabda, Mirzo G‘olibda, Geyneda, Lorkada, Cho‘lponda, Usmon Nosirda kuzatganman. Usmon Nosirning she’rlari va dostonlari oralab bulutlar bilan olishayotgan va bulutlar orasidan yanada yaraqlab chiqayotgan va hissiyotli yuraklarni behad to‘lqinlarga soladigan nurafshon oy kezadi. Oy, shamol, bulut — go‘zallik va hayot yaratishdek qodir tabiatli bulutlar Usmon Nosir she’rlariga fusunkorlik baxsh etadilar. Shunchalar yosh bo‘lishiga qaramasdan, Samarqand dorilfununida talabalik chog‘idayoq uni o‘zbek she’riyatining eng talantli vakili sifatida Rossiyaga, Armanistonga, Tojikistonga adabiy anjumanlarga she’r o‘qigani yuborardilar.

Rim tarixi ham, Kleopatra ham, Geyne, Lermontov, Dante va Shekspir va bularning qahramonlari ham, yon- atrofidagi tengqur do‘s-t-yorlarining taqdirlari ham uning yuragiga jazillagan uchqunlar tashlar va uchqunlar ilhom parisining oppoq kaftida yombi, quyma she’rlarga aylanardi.

Uning barcha she’rlarida, tarjimalarida kismat tilga kirgan satrlar, bandlar bor! Balki qismat uning qalbida juda erta tilga kirgandir. Lekin she’rlarida qismatning ovozi o‘ttiz uchinchi yildan to‘xtovsiz eshitila boshladi. Esingizdami, uning dastur she’ri «Yurak»dagi so‘nggi satrlar: «Yoril, chaqmoqqa aylan sen, Yoril! Mayli tamom o‘lsam!...» Men buni qismat ovozi deb bilaman. Shoир o‘z taqdirini bashorat qilishga o‘tgan edi. Yoki mashhur «Monolog»ni eslangu. Bunda barcha o‘qli satrlar — qismat ovozi. Va ayniqsa: «Ehtimolki, tamom qilmasdan — Umrim tugar...» Chamasi, «Nil va Rim» ham boshdan-oyoq qismat sasi. «Lampam yonur... yaralangan qanotdek og‘ir O‘y bosadi. Yuragimda go‘yo sel yog‘ar...» Usmon Nosirning bu sirli she’rda Homer bilan bahslashuvi ham, Rim sahnasida gladiator bilan yo‘lbars olishuvi ham, xalqning bu qonli manzaradan zavqlanishlari ham va nihoyat, «Rim — o‘yindan o‘lim kutgan jinni teatr» satri ham bari-bari o‘z taqdiriga bashoratlar edi.[2.B64]

Shoir she’rlari bashoratning anglashilmas ajib sirli tasvirlariga to‘lgan. Uning har satridan bu buyuk insonning qismati ko‘rinib turadi:

Jim!.. Ufqdag‘i botar quyoshni

Shart kesilgan boshga o‘xshatdim.

Parcha-parcha kuygan shafaqlar

Tirqiragan qonni eslatdi!

Dahshatli Sibir o'rmonlarida yalang'och ko'ksini o'yib qonga botirgan Usmon Nosir!

Sening she'rlaringda qismating hayqiradi!

Gunohing nima edi, seni bunchalar shafqatsiz zabun qildilar?!

Usmon Nosirning «1870» deb atalgan ajib po'rtanador, ohang tovlanishlariga to'la she'rini ko'plar biladi, ko'plar yodlab yuradi. Bunda birovlar Razinining boshini yumalab ketgan qirmizi quyoshga o'xhatilganidan mutaassir bo'ladi.

Yana kimdir she'rda onaning hech qachon botmaydigan oyga, uning bag'ri oq yumshoq bulutga mengzalganidan ta'sirlanadi. Bu she'rda bog' timsoli ham yo'q emas, ona timsoli bog' timsoliga shu'la tashlab turadi. Oy ularga xayoliy suratlar bag'ishlaydi. Oy nuri esa sirlantiradi. Bir she'rdagi hamma obrazlar bir-birlariga o'zaro shu'la tashlab, bir-birlarini shu'lador qilib turadilar. Bundagi tashbehtar va ohanglarda chinakam ilhomiylik jo'sh uradi.

Meni esa bu she'rda «burlaklar» degan so'z-tushuncha bilan she'rning keyingi uchinchi bandida keluvchi «burdalar» va «murdalar» degan so'z-tushunchalarning o'zaro munosabatdorligi har doim hayratga soladi.

Bunday hodisalar Navoiy, Hofiz, Bayron, Geyne singari daholardagina daho san'atining savqi tabiiylici orqali namoyon bo'ladi.

Aslini olganda, bu uchala so'z-tushuncha bir-biri bilan hech qanday bog'lanmagan. Ular qo'llangan satrlar va bandlar boshqa. Lekin Usmon Nosir yuragida she'r savqi tabiiylik qudratidan tug'ilgani bois u boyagi uch narsaning — tuyg'u, so'z va ohanglarning porloq garmoniyasi — uyg'unligiga erishadi.[3.B87]

Usmon Nosirning hamma she'rlarida shunday: barcha so'zlar va obrazlar o'zaro yo ma'no, yo ohang, yo shu'la bilan bog'langan, o'zaro nurafshon! Shuning uchun Usmon Nosir she'riga bir begona tovush sig'maydi. Uning yotligi darrov bilinadi. Shu she'rda 84-yilgi to'plamning noshiri yana bir g'alatga yo'l qo'yadi. Usmon Nosir she'riga g'oyatda ehtiyyotkor munosabatda bo'lish kerak deb aytdim. Juda kichkina ehtiyyotsizlik she'rga juda yomon putur yetkazishi mumkin. Shoир ona uchun bola tarbiyalash mashaqqatini chizarkan:

Va azobga so'z bermaydi u.

Bu safar ham tog'day chidadi —

deb bir bandni yakunlaydi. So'ng shundan keyin she'rning oxirgi bandi keladi. 84-yil nashrida o'qiyimiz:

O... bilmadi kimni tuqqanin,

Faqat har galgiday shod edi.

Shu xolos. Bunday qaraganda go'yo xech narsa o'zgarmagan. She'r tabiiy davom etyapti. Fikr oqimi va mazmun rivojida uzilish yo'q. Lekin xuddi shu yerda Usmon Nosirning go'zal san'atkorligi bilan chambarchas bog'liq bir muhim badiiyat tamomila yo'qolgan...

«Mehrim»ning birinchi nashrini qo‘lga olamiz. Ne ko‘z bilan ko‘raylikki, unda shunday yozilgan:

Bu safar ham tog‘day chidadi —
— Yu... bilmadi kimni tuqqanin.

Ko‘rdingizmi, ana shu xolos! Bir yuklama-yu (yoki: yu) undov so‘z «o»ga almashtirib yuborilgan. Usmon Nosir esa tepadagi satr bilan pastdagi satrni bir «yu» tovush-ohangi bilan ajib bir tarzda bir-biriga bog‘lagan. Aslida yuklama «chidadi»ga tegishli. U «chidadiyu» deb o‘qilishi kerak. Lekin shoir «tog‘day chidadi» degan jumlanı tugallangan jumla kabi yozadi. Bu — tugal fikr. Unda xech qanday ishtibox, ikkilanish, sarsilish ma’nolari yo‘k. «Tog‘day chidadi». Tamom-vassalom. Ammo keyingi misrani uzoq cho‘zilgan «-yu» bilan boshladi. «Bilmadi kimni tuqqanin» degandagi juda katta zalvorli ma’no «Tog‘day chidadi» degan tugal fikr bilan shu «-yu» so‘lishi vositasida bog‘lanyapti, o‘zaro bir-birini to‘ldiryapti va kuchaytiryapti. Bu «-yu» shundayki... nima desamikin... osmonda quroq varrak darillab uchyapti. Varrak ko‘rinib turibdi, uning biroz salqigan kanop ipi ko‘rinib turibdi. Pag‘a bulutlar kezgan osmon ko‘rinib turibdi. Bular hammasi bir-biriga bog‘langan... faqat shamol ko‘rinmaydi. Holbuki, shamol energiya, vosita... u bo‘lmasa, quroq osmonga ko‘tarilmasdi. Demoqchimanki, Usmon Nosirning she’ridagi «-yu» ana shu shamolga o‘xshaydi. U varrakni olib qochib, uni yulkilaydi, uni darillatadi-yu o‘zi ko‘rinmaydi.

Demak, ijodkor har bir misraga va har bir so‘zga o‘zgacha ruh bergandek bo‘ladi. Uning asarlari shuning uchun ham o‘z qimmatini yo‘qotmaydi, qalamkashlarni ilhomlantirishda davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumayeva Dilnoza. Usmon Nosir yodi. Ученый XXI века.ISSN 2410-3586. 2023. № 1 (92)
2. Urinov Odilbek Laziz o‘g‘li. Usmon Nosir: shaxs, shoir va tuzum NEWINNOVATIONS IN NATIONAL EDUCATION (NINE)
3. [www.xurshiddavron](http://www.xurshiddavron.uz) kutubxonasi
4. www.ziyo.uz